

Ikromova Yulduzoy Erkin qizi
o'qituvchi
Mamaramimova Gulinoza Mamatkarim qizi
2 – bosqich talabasi JDPU

Sistematikasi

Tip. Xordalilar – *Chordata*

Kenja tip. Umurtqalilar – *Vertebrata* yoki Bosh skeletlilar – *Craniata*

Katta sinf. To'rt oyoqlilar – *Tetrapoda*

Sinf. Qushlar – *Aves*

Turkum. Flamingosimonlar – *Phoenicopteriformes*

Vakil. Qizil qanot flamingo – *Phoenicopterus roseus*

Qizil g'ozlar, flamingolar – qushlar tarkumi. Flamingilarning ajdodlari Yer sayyoramizda, hattoki 30 million yillar oldin ham mavjud bo'lishgan. Umuman olganda Smintovsk Milliy Hayvonot bog'inining barcha tadqiqotchilari shunday deb o'yashmoqda. Ba'zan laylaksimonlar tarkumi tarkibiga kenja tarkum maqomida ham kiritiladi. 6 turi ma'lum.

Bu tarkumning vakillari ekvatororda keng tarqalgan, MDH da qizil qanot flamingo, ya'ni qizil g'oz (*Phoenicopterus roseus*) keng tarqalgan. Janubiy G'arbiy Yevropa, Afrika, Janubiy G'arbiy Osiyo, Janubiy va Markaziy Amerika hamda Shimoliy Amerikaning janubiy qismida tarqalgan.

Tanasi 91 – 120 sm, balandligi 80 sm, qanoti 43–49 sm, og'irligi 2,5 – 4,5 kg. Tumshug'i katta, tumshuq asosi baland bo'lib, o'rtasiga kelib pastga qayrilgan. Tumshuq qirralarida shox plastinkalari bor. Suv yoki suyuqroq balchiqdan oziq moddalarni suzib olishiga yordam beradi. Flamingolarning oyog'i va bo'yni juda uzun, tinch turgan vaqtida bo'yni lotincha «S» harfiga o'xshaydi. Barmoqlarida suzgich pardalari bo'ladi.

Patlari pushti, oq, yirik patlari esa qora. Patlarining eng och rangi – bu pushti (flamingolarda), eng yorqin rangi esa qizil (Kariblardagilarda). Tadqiqotchilarning aytishlaricha, pushti flamingo qushlarining pat ranglari och yoki to'q bo'lishi ularning ovqatlanishiga bog'liq ekan. Bu pushti flamingolar suv osti o'simliklar va karotinoid pigmentlariga boy bo'lgan krevetkalar bilan oziqlanishar ekan (1-rasm).



1– rasm. Flamingoning umumiy ko'rinishi

Flamingolar parvoz qilishni bilishadi, lekin havoga ko'tarilish uchun ularga katta tezlik bilan yugurib parvozga tayyorlanishlari kerak. Parvoz paytida flamingolar uzun bo'ynini va oyoqlarini bir chiziq qilib cho'zib oladilar.

Yashash hududi. Oddiy qizil g'oz Kaspiy dengizining shimoli-sharqi qismi va Qozog'istonning sho'r ko'llari atrofi (odam borishi qiyin joylar) da yashaydi. MDH da flamingolar, asosan Shimoli – G'arbiy Qozog'iston ko'llarida koloniya bo'lib yashaydi. Flamingolarni ov qilish taqiqlangan.

Dengiz va sho'r ko'l qirg'oqlariga koloniya bo'lib (ba'zan bir necha mingtasi birga) uya quradi. Konussimon, balandligi 10—60 sm li uyasini balchiq yoki qumdan yasaydi. 1–2 ta tuxum qo'yadi. Tuxumini nari va modasi navbat bilan 30–32 kun bosadi. Jo'ja ochuvchi qushlardan hisoblanadi. Polaponlari parli, ko'zlari ochiq. Polaponlari tug'ilgandan so'ng inlarida 5–12 hafta qoladilar. Polaponlari ota - onalari ularni boshlang'ich paytlarida substantsiyalar va o'zlarining oshqozonlarining tepa qismlaridagi hazm bo'ladigan moddalar bilan oziqlantirishadi. Flamingo polaponchalari kuchga kirganlaridan so'ng "yasli" deb ataladigan guruhlarda mustaqil ovqatlanishni o'rganishni boshlashadi (2-rasm).



2-rasm. Flamingo uyasi va bolasining ko'rinishi

Flamingolar ozuqa (plankton) ovlagan vaqtida tumshug'ini suvga botirib, boshini shunday egadiki, tumshug'ining asosi pastda, uchi esa yuqorida bo'ladi. Shu holatda tumshug'i birmuncha ochiladi va qush boshini ritmik holatda cholg'u asbobini chalish harakatiga o'xshatib qimirlatadi. Tumshuqlari yordamida suvni shimb oladi. Shu tariqa ovqatni elaklab olib so'ng yutishadi, suv esa tumshuqlari ustidagi maxsus teshikchalar ustidan chiqib ketadi. Mayda sochlarga o'xshaydigan filtrlar ovqatni elab suvni chiqarib yuborishga yordam beradi. Qizil g'ozlar urug', suvo'tlar, qisqichbaqasimonlar, mollyuska va suv hasharotlari bilan oziqlanadi (3-rasm).



3-rasm. Flamingoning oziqlanishi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zoologiya (xordalilar 2-qism) — S. Dadayev, Q. Saparov. Toshkent - 2011
2. Umurtqalilar zoologiyasi ma’ruzalar matni — S.Dadayev. Toshkent - 2000